

## BOLALARDA MOTIVATSIYANI SHAKILLANTIRISH SAN’ATI

Rustamova Ruxshona Ravshanbek qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti BT talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411377>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarda motivatsiyani shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari yoritiladi. Unda ichki va tashqi motivatsiya tushunchalari, ularning bola shaxsining rivojlanishidagi o‘rni hamda talim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-ona va pedagoglarning bolalarda qiziqish uygotish, maqsad qoyishga o‘rgatish, ragbatlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali ijobiy motivatsion muhit yaratish usullari ko‘rsatib beriladi. Maqolada bolalarda mustaqillik, mas’uliyat va o‘ziga ishonchni rivojlantirishda motivatsiyaning muhim omil ekanini asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, psixologiya, o‘zini o‘zi belgilash nazariyasi, shaxs rivojlanishi, ragbatlantirish, ta’lim samaradorligi.

**Аннотация:** В данной статье освещаются психологические и педагогические основы формирования мотивации у детей. В ней анализируются понятия внутренней и внешней мотивации, их роль в развитии личности ребенка, а также значимость в учебно-воспитательном процессе. Кроме того, представлены методы создания позитивной мотивационной среды через пробуждение интереса у детей со стороны родителей и педагогов, обучение постановке целей, поощрение и поддержку. Статья обосновывает, что мотивация является важным фактором в развитии у детей самостоятельности, ответственности и уверенности в себе.

**Ключевые слова:** мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, психология, теория самодетерминации, развитие личности, стимулирование, эффективность образования.

**Abstract:** This article highlights the psychological and pedagogical foundations of developing motivation in children. It analyzes the concepts of intrinsic and extrinsic motivation, their role in child personality development, and their significance in the educational process. Furthermore, it presents methods for creating a positive motivational environment through arousing interest, teaching goal-setting, and providing encouragement and support by parents and educators. The article substantiates that motivation is a crucial factor in developing independence, responsibility, and self-confidence in children.

**Keywords:** motivation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, psychology, self-determination theory, personality development, encouragement, educational effectiveness

Mamlakatimizda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilayotgani ham bolalarda motivatsiyani shakllantirishning naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev yoshlar haqida shunday ta’kidlaydi: “Yoshlarimiz — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari”[1;34]. Ushbu fikr yosh avlodga bildirilgan yuksak ishonch va katta mas’uliyat ifodasidir. Shuningdek, Prezidentimiz “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan barkamol insonlar etib tarbiyalash — eng ustuvor vazifamizdir”, deya aytadi o‘z nutqida. Bu so‘zlar ta’lim va tarbiya jarayonida bolalarda ichki motivatsiyani rivojlantirish, ularni o‘z ustida ishlashga, maqsad sari intilishga undash zarurligini anglatadi.

Ta’lim va tarbiyada bolaga ijobiy muhit yaratish motivatsiyaning poydevorini tashkil qiladi. Ya’ni, ota-onalar va ustozning ijobiy qo‘llab-quvvatlashi ichki motivatsiya uchun shart. Ota-onalar bilan hamkorlik va oilaviy muhitning roli: Bolada o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni shakllantirishda oilaviy muhit poydevor vazifasini o‘taydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan “natijaga yo‘naltirilgan” (faqat baho uchun maqtash) yondashuvdan ko‘ra, “jarayonga yo‘naltirilgan” (intilish va mehnatni qadrlash) yondashuv bolaning ichki motivatsiyasini kuchliroq rivojlantiradi. Ota-onalar bolaga tayyor yechimlarni taqdim etish o‘rniga, ularni mustaqil fikrlashga, xato qilishdan qo‘rqmaslikka va har bir kichik qadamda o‘z yuksalishini his qilishga o‘rgatishlari lozim. Zero, tashqi rag‘bat (sovg‘a yoki pul) vaqtinchalik xarakterga ega, ammo bilim olishdan zavqlanish hissi barqaror natija beradi.

Bugungi kun ta’lim tizimi uchun nihoyatda dolzarb bo‘lgan masalalardan biri — bu bolalarda nafaqat bilim, balki o‘sha bilimni mustaqil egallashga bo‘lgan ichki ehtiyojni shakllantirishdir. Bu borada o‘zbek psixolog olimi E.G. Oziyev o‘zining ko‘p yillik tadqiqotlariga tayanib, shunday ta’kidlaydi: “Bolada mustaqil tafakkurning shakllanishi — bu uning ijtimoiy muhitdagi faolligining mahsulidir. Faqatgina mustaqil bajarilgan faoliyat hamda shaxsiy izlanishgina bolada bilimga nisbatan barqaror qiziqish (ichki motivatsiya) uyg‘ota oladi”[6;112]. Olimning ushbu o‘ta muhim so‘zlari shuni ko‘rsatadiki, agar ta’lim jarayonida bola tayyor ma’lumotni shunchaki qabul qiluvchi “passiv obyekt” bo‘lib qolsa, uning intellektual salohiyati va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi so‘nadi. Aksincha, unga ijtimoiy muhitda muloqot qilish, o‘z g‘oyalarini sinab ko‘rish va muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyati berilsa, uning “ichki motivatsiyasi” harakatga keladi.

Bolani ijtimoiy-psixologik rivojlanishdagi asosiy omillar to‘g‘risida bir qancha olimlarning turli yondashuvlari asosiy manba hisoblanadi. Masalan, Lev Vygotsky — “Bola rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan bevosita bogliq. Bola yangi bilimni o‘zaro muloqot orqali o‘rganadi, shuning uchun rag‘bat va qo‘llab-quvvatlash uning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi”[9;84]- degan fikrni ilgari suradi. Bola o‘z faoliyati orqali dunyoni kashf qiladi. Har bir yangi tajriba uning qiziqishini oshiradi va o‘zini rivojlantirishga undaydi.

“Bolalalar tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini va bola dunyoni o‘z faoliyati orqali kashf qiladi”[8;68]-deya ta’kidlaydi Jean Piaget. Uning nazariyasiga ko‘ra, bola tayyor bilimni shunchaki qabul qilmaydi, balki uni mustaqil tajriba, kuzatish va amaliy harakat orqali o‘zlashtiradi. Piagetning bu qarashi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki bola o‘zi izlanib topgan bilimni ko‘proq qadrlaydi va chuqurroq eslab qoladi. Agar ta’lim jarayonida bolaga faqat tayyor ma’lumot berilsa, u passiv tinglovchiga aylanadi. Ammo mustaqil fikrlash, tajriba qilish va xulosa chiqarish imkoniyati berilsa, unda ichki qiziqish va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq kuchayadi.

Shu sababli, bolalarda motivatsiyani oshirish uchun ularga savol berish, muammo qo‘yish va mustaqil yechim topishga yo‘naltirish zarur. Bu yondashuv nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki bolada o‘ziga ishonch va maqsad sari intilish hissini ham rivojlantiradi.

B.F. Skinner — “Mukofot va ijobiy mustahkamlash bolada xatti-harakatni mustahkamlashga xizmat qiladi”[3;62]. Rag‘batlantirish va maqtov tashqi motivatsiya sifatida ishlaydi. Tashqi motivatsiya - ya’ni mukofot, rag‘bat va maqtov - bolani maqsad sari intilishga undashda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda, qiyin topshiriqlarni bajarish uchun tashqi rag‘bat motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi.

Deci va Ryan (1985) — Self-Determination Theory (SDT)

Ushbu tadqiqot bolalarning ichki va tashqi motivatsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiya — yani bolaning qiziqishi, o‘zini rivojlantirish istagi va maqsad sari intilishi — uzoq muddatli va barqaror o‘qish faoliyatini shakllantiradi.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, bolaga mustaqil tanlov va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkoniyati berilganda, u yanada faol, masuliyatli va maqsadga intiluvchi boladi. Motivatsiya faqat mukofot yoki tashqi rag‘bat bilan emas, balki bolaning ichki qiziqishi va o‘zini rivojlantirish istagi bilan mustahkamlaydi. Masalan, agar bola o‘zi qaysi kitobni o‘qishni, qaysi topshiriqni bajarishni tanlasa, u bunda faqat “baho olish” yo’ki “ota-onani xursand qilish” emas, balki shaxsiy qoniqish va o‘zini sinash istagi bilan harakat qladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda motivatsiyani shakllantirish – bu ularning ichki qiziqishi, o‘ziga ishonchi va maqsad sari intilishini rivojlantirish demakdir. Bola mustaqil fikrlashga o‘rgatilsa, kichik yutuqlari qadrlansa va ijobiy muhitda tarbiyalansa, unda bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq yanada kuchayadi. Bolalarda motivatsiya majburlash yoki faqat mukofot bilan emas, balki mehr, ishonch va to‘g‘ri yo‘naltirish orqali shakllanadi. Shunday yondashuv orqali biz kelajakda o‘z oldiga maqsad qo‘ya oladigan, qat’iyatli va mas’uliyatli yoshlarni tarbiyalay olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti.
2. Abraham Maslow (1943). “A Theory of Human Motivation.” *Psychological Review*, 50(4), 370–396.
3. B.F. Skinner (1953). *Science and Human Behavior*. New York: Macmillan.
4. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
5. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. New York: Plenum Press.
6. G‘oziyev E. G‘. (2010). *Ontogenez psixologiyasi*.
7. Hidi, S., & Harackiewicz, J. M. (2000). “Motivating the Academically Unmotivated: A Critical Issue for the 21st Century.” *Review of Educational Research*, 70(2), 151–179.
8. Jean Piaget (1972). *The Psychology of the Child*. New York: Basic Books.
9. Lev Vygotsky (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.